

2/2024,
mart-
aprel
(№ 00070)



QISHLOQ HUDUDLARIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrası” v.b dotsent, PhD.

<https://orcid.org/0000-0003-4202-7159>

aqida_abdurakhmanova@yahoo.com

Xoshimova Sevvara Bahromovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrası” assistenti

<https://orcid.org/0009-0008-9191-4321>

xoshimovasevara1611@gmail.com

Sayfullaev Umidulla Fazliddin o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talabasi

usayfullayev084@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss2/a34

Anatatsiya

Butun dunyoning hozirgi kundagi eng katta muammolaridan bo‘lgan ekologik muammolar hamda aholi turmush darajasini oshirish borasida ushbu ilmiy maqolamizda keltirib o‘tilgan. Bunda aholi turmush darajasini yaxshilashga ekoturizmning ta‘sir darajasini baholangan hamda modellarda tahlil etilgan. Ekoturizmning aholi daromadlariga hamda infratuzilmani rivojlantirishga Chi-kvadrat testi yordamida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnomalarimiz tahlil etilgan hamda xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ekoturizm, aholi, daromad, infratuzilma, Chi-kvadrat test, model, iqtisodiy samaradorlik.

ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ ЗА СЧЕТ РАЗВИТИЯ ЭКОТУРИЗМА В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ

Абдурахманова Акида Файзулла кизи

PhD, доцента кафедры зеленой экономики и устойчивого бизнеса Самаркандского филиала Ташкентского государственного экономического университета

Хошимова Севара Бахромовна

Ассистент кафедры зеленой экономики и устойчивого бизнеса Самаркандского филиала Ташкентского государственного экономического университета

Сайфуллаев Умидулла Фазлиддин угли

Студент Самаркандского филиала Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация

В данной научной статье затронуты проблемы экологии, которые сегодня являются одними из крупнейших проблем мира, и повышения уровня жизни населения. Уровень влияния экотуризма на повышение уровня жизни населения оценивался и анализировался в моделях. Проанализированы наши социальные анкеты, проведенные с использованием критерия Хи-квадрат по доходам населения от экотуризма и развитию инфраструктуры, а также сформулированы выводы и предложения.

Ключевые слова: экотуризм, население, доходы, инфраструктура, критерий хи-квадрат, модель, экономическая эффективность.

OPPORTUNITIES FOR INCREASING POPULATION INCOME THROUGH THE DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN RURAL AREAS

Abdurakhmanova Akida Faizulla kizi

PhD, Associate Professor of the Department of Green Economy and Sustainable Business, Samarkand Branch of Tashkent State University of Economics

Khoshimova Sevara Bakhromovna

Assistant at the Department of Green Economy and Sustainable Business, Samarkand Branch of Tashkent State University of Economics

Sayfullaev Umidulla Fazliddin ogli

Student of the Samarkand branch of the Tashkent State Economic University

Abstract

This scientific article touches upon environmental problems, which are one of the biggest problems in the world today, and improving the standard of living of the population. The level of influence of ecotourism on improving the standard of living of the population was assessed and analyzed in models. Our social questionnaires, conducted using the Chi-square test on population income from ecotourism and infrastructure development, were analyzed, and conclusions and proposals were formulated.

Key words: ecotourism, population, income, infrastructure, chi-square test, model, economic efficiency.

Kirish

Daromadlar taqsimotini tadqiq etish va uni turli ijtimoiy-iqtisodiy va zamon va makon nuqtai nazaridan istiqbolli taqqoslash aholi turmush darajasini, ijtimoiy ta'minot darajasini va jamiyat tomonidan yaratilgan moddiy boyliklarni taqsimlashda ijtimoiy adolatni baholash uchun asos bo'ladi. Shu sababli aholi daromadlarini taqsimlashning statistik tahlillari budjet va ijtimoiy siyosat bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Aholi turmush darajasining yaxshilanishi, orttirgan daromadi borgan sari o'sib borishi o'z navbatida ekoturizm rivojiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Quyida ekoturizmning rivojlanish manbai bo'lgan aholi daromadlari, ularning statistik holati to'g'risida qisqacha fikr yuritimiz.

Aholi daromadlari-bu aholi yoki uning oila a'zolari tomonidan ma'lum davr ichida olingan yoki ishlab chiqarilgan pul va natural mablag'lar yig'indisidir[1].

Ensiklopedik lug‘atlarda qayd qilinishicha, “aholi daromadlari — barcha aholiga tegishli pul va natural (mahsulot shaklida) tushumlar hamda ko‘rsatilgan bepul xizmatlar summasi; aholining milliy daromaddagi hissasi. Aholining jami turdagi daromadlari manbai — ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalar, mukofot, foyda, dividend, zayom va lotereya yutug‘i, bank to‘lagan foiz puli, ko‘chmas mulkdan kelgan renta to‘lovi va ijara puli, sug‘urta qoplamalari va boshqalardan iborat. Bozor sharoitida aholi daromadlarining eng katta qismi pul shakliga ega. Qishloq aholisi o‘zining tomorqa xo‘jaligidan ham mahsulot olib, daromad ko‘radi va u natural daromadga kiradi. Shuningdek, aholining yordamga muhtoj qatlamlariga bepul mahsulot beriladi va xizmatlar ko‘rsatiladi (bepul ovqatlanish, kiyim-kechak, doridarmon, transport va kommunal xizmati va hokazo); bular natural daromadlar hisoblanadi. Aholi daromadlari nominal va real daromadlarga bo‘linadi. Nominal daromad aholi muayyan pul summasi shaklida olgan daromad bo‘lib, inflyatsiya ta‘sirida uning harid qobiliyati pasayishi mumkin. Real daromad — pul shaklidagi daromadga amalda qanday miqdorda iste‘mol buyumlari va xizmatlar harid etish mumkinligini ko‘rsatadi. Aholi jon boshiga hisoblangan real daromad aholi turmush darajasining umumlashgan va yaxlit ko‘rsatkichi hisoblanadi. Iqtisodiyotda aholi yalpi pul daromadlaridan barcha majburiy va ixtiyoriy to‘lovlar (soliqlar, qarz puli, badallar) chegirib tashlangandan so‘ng uning qo‘liga tegadigan daromad ham muhim ahamiyatga ega. Aholi qo‘liga tegadigan daromad miqdoriga soliqlar kuchli ta‘sir etadi”[1].

Aholining daromadlari aholi uchun shaxsiy ehtiyojlarini qondirishda, muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Aholi daromadlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- mehnati uchun olgan ish haqqi va boshqa to‘lovlar;
 - individual mehnat hamda tadbirkorlik faoliyatidan daromad;
 - nafaqa, stipendiya va boshqa sotsial transfertlar, mulk daromadlari, renta, dividend, ijara daromadlari;
 - vorislik, sug‘urta, qishloq xo‘jalik mahsulotlari sotishdan tushumlar va boshqalar.
- Aholi turmush darajasi sifatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi eng asosiy omillardan biri aholining umumiy va jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlari hisoblanadi[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Keyingi yillarda ekoturizm bilan bog‘liq masalalar dunyo olimlari e‘tiborini o‘ziga qaratmoqda. Panov I.N. “Экологический туризм” ilmiy maqolasida tabiatni asrashning zamonaviy yo‘li sifatida ekoturizmni rivojlantirish va shu bilan birgalikda mahalliy aholini ish bilan band qilish, ekoturizmni daromadli sohaga aylantirish mumkinligini qayd etgan[3].

A.D. Chudnovskiy ekoturizm sohasida B&B (Bed and Breakfast) ko‘rinishidagi mehmonxonalarni tashkil qilish va shu yo‘l bilan ko‘proq ekoturistlarni jalb qilishni maslahat beradi. Bu turdagi mehmonxonalarni tabiiy mahsulotlar bilan jihozlash, mehmonlarni ekologik toza ozuqa mahsulotlari bilan ta‘minlashi kerak deb hisoblaydi. Bu orqali aholi bandligini ta‘minlash masalasiga ham to‘xtalib o‘tgan[4].

A. Nig‘matov, N. Shomurotovaning “Ekoturizm asoslari” kitobi ekoturizmni endi o‘rganayotgan, ekoturizm sohasida ish olib borayotganlarga mo‘ljallab yaratilgan bo‘lib bu kitobda ekoturizmning vazifalari, rivojlanish tarixi, obyekti, predmeti, turizmدا ekoturizmning tutgan o‘rni nazariy jihatdan yoritilgan bo‘lsa, amaliy jihati bo‘yicha ekotur talablari va tavsiyalari, O‘zbekiston hududini ekoturistik rayonlashtirish kabi masalalari ko‘rilgan [5].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015-2030-yillar uchun mo'ljallangan “Barqaror rivojlanish maqsadlari” dasturida 17 ta global maqsadning birinchisi etib “Mamlakatlarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish” maqsadini belgiladi. Shuningdek, mazkur hujjatda 8-maqsad sifatida “Samarali bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin-qizlarni munosib ish bilan ta'minlash asosida barqaror va keng qamrovli iqtisodiy o'sishga ko'maklashish maqsadi” belgilandi[3].

Qishloq hududlari aholisining daromadini oshirish bo'yicha bir qator chora- tadbirlar jahonning barcha mamlakatlarida amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasida ham aholi daromadini oshirish va kambag'allik darajasini qisqartirish bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Binobarin, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekiston tarqqiyoti strategiyasi”da qishloq xo'jaligi xodimlari daromadini 2 barobarga oshirish kerakligi ta'kidlangan va kamchiliklarni kamaytirish maqsadida mamlakat o'z oldiga 2026-yilga qadar kambag'allik darajasini 2 barobarga kamaytirish va mamlakat eksport hajmini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish hamda xususiy sektorning eksportdagi hajmini 60 foizga yetkazishni maqsad qilib qo'ydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Biz tadqiqotlarimiz davomida 6 (Zarafshon milliy bog'i, Ertaklar olami, Teshiktosh, Ming archa, Oqbo'yro, Hazrati Dovud) ta ekoturizm obyekti joylashgan hududda ijtimoiy so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada 167 nafar respondent ishtirok etgan bo'lib, ularning 90 nafari ekoturizm xizmatlari ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholi vakillari, 77 nafari shu hududda yashovchi mahalliy aholi hisoblanadi. So'rovnoma natijalariga hamda viloyatning statistik ma'lumotlaridan foydalangan holda hududlarda ekoturizmni salohiyatini oshirish, infratuzilmani rivojlantirishda ekoturizmning ta'siri Xi-kvadrat testlaridan foydalangan holda tahlillar amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasida kambag'allik darajasini kamaytirish maqsadida juda katta salmog'li ishlar qilindi. Xususan “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” kabi ro'yxatlar shakillantirilib, qishloq hududlari aholisining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga subsidiyalar va kam foizli kreditlar berilmoqda. Bu kabi sayi harakatlar zamirida mamlakatda kambag'allik darajasini qisqartirib, qishloq hududlari aholisini xususiy hamda yakka tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullantirish orqali aholi daromadlarini oshirish ko'zda tutilgan.

Tahlil va natijalar:

Daromadlarni taqsimlash to'g'risidagi bilimlar butun mamlakatning barcha aholisining turmush darajasini baholash, shuningdek, turli ijtimoiy guruhlar yoki turli mintaqalar a'zolarining turmush darajasini solishtirish imkonini beradi. Daromad, shuningdek, boshqa mamlakatlarga nisbatan mamlakat aholisining nisbiy turmush darajasini ko'rsatadi. Keng ma'noda, barcha moddiy va ijtimoiy hayot sharoitlari majmuasi bilan belgilanadigan turmush darajasini ushbu umumiy tushunchada aniqlab bo'lmaydi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida aholi daromadlari yildan yilga o'sish sur'atini qayd etmoqda.

Mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ekoturizmning rolini aniqlash uchun uning qishloq joylaridagi uy xo'jaliklari daromadiga qo'shgan hissasini aniqlash muhimdir.

Ushbu qishloq joylarida ekoturizmning uy xo'jaliklari daromadlariga qo'shadigan hissasini hisoblash respondentlarning ma'lum maoshlari va ularning oylik uy xo'jaliklari daromadlari asosida amalga oshirildi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlarining 5 yillik holati darajasi[4]

Ko‘rsatkichlar nomi	2017	2018	2019	2020	2021
Aholi umumiy daromadlari, mlrd.so‘m	236893,1	300842,7	365735,6	415085,0	515660,7
O‘tgan yilga nisbati %	119,7	127,0	121,6	113,5	124,2
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so‘m	7314,1	9128,6	10891,3	12125,6	14769,0
O‘tgan yilga nisbati %	117,7	124,8	119,3	111,3	121,8
Aholi real umumiy daromadlari, mlrd.so‘m	216400,1	255971,0	319336,1	367559,6	465271,8
O‘tgan yilga nisbati %	109,3	108,1	106,1	100,5	112,1
Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar, ming so‘m	6681,4	7767,0	9509,6	10737,3	13325,8
O‘tgan yilga nisbati %	107,5	106,2	104,2	98,6	109,9

Ushbu qishloq joylarida ekoturizmning uy xo‘jaliklari daromadlariga qo‘shadigan hissasini hisoblash respondentlarning ma‘lum maoshlari va ularning oylik uy xo‘jaliklari daromadlari asosida amalga oshirildi.

Demak, ekologik turizmni tashkil etishda mahalliy aholi manfaatlarini inobatga olgan holda namunaviy loyihalarni yaratish, ularni amalga oshirishda real ijtimoiy-iqtisodiy foyda olish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Olingan ma‘lumotlarga asoslanib, Samarqand viloyatida ekoturizm rivojlanishining 2015-2020 yillardagi o‘shish dinamikasini quyidagicha berishni lozim topdik:

2-jadval

Samarqand viloyatida ekoturizmning rivojlanish dinamikasi]

T/p	Ko‘rsatkichlar	Yillar:					
		2015	2016	2017	2018	2019	2020
1.	Ekoturizm sohasida ishlovchi xodimlar kishi (ming kishi)	1047	1118	1232	1964	2907	897
	O‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi	102,54	106,78	110,19	159,41	148,01	30,85
2.	Ekoturizm subyektlari soni	23	26	35	44	115	93
	O‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi % da	107,31	113,04	134,61	125,71	261,36	80,86
3.	Ekoturizm subyektlardan olingan daromad, mlrd.so‘m	5,8	11	13,29	14,15	22,69	13,6
	O‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi	132,47	189,65	120,81	106,47	160,35	59,93

Ekoturizm sohasida band bo‘lgan aholi soni 2015 yilda 2,54 % ga o‘sgan bo‘lsa, 2016 yilda 6,78% ni, 2017 yilda 10,19 % ni, eng yuqori o‘shish 2018 yilda 59,41 % ni 2019 yilda esa 48,01 % ni tashkil etgan 2020 yilga kelib bu sohada faoliyat yuritadigan mehnat resurslari 69,15 % ga qisqarishiga butun dunyoda yuzaga kelgan pandemiya, ya’ni COVID-2019 ning tarqalishi va turizmning to‘xtab qolishi sabab bo‘lgan.

Ekoturizmga bandlik uy xo'jaliklarining daromadlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ammo xavfga ta'sir ikki xil bo'lishi mumkin; agar diversifikatsiya kuchaysa, bu xavfni kamaytirishi mumkin, ammo ekoturizmga bo'lgan talab o'zgaruvchan bo'lgan hududlarda uy xo'jaliklari ekoturizmga suyansa, xavfni oshirishi mumkin yoki ekoturizm ham iqtisodiy, ham iqtisodiy bo'lmagan ekzogen zarbalarga moyil bo'ladi. Umuman olganda, o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, ushbu chekka qishloq joylarda yuqori darajadagi ekoturizm taklif etayotgan ish bilan ta'minlanganlik uy xo'jaliklari uchun xavfsizroq va ishonchli daromad manbai bo'lib xizmat qilishini ko'rsatdi, ular ko'pincha boshqa hollarda ya'ni qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohasidan bunday daromadga ega bo'lmaydilar[5].

Ekoturizm xodimlarining aktivlar va inson kapitaliga (ta'lim orqali) sarmoya kiritish qobiliyati kelajakdagi kambag'allikni qisqartirish imkoniyatini oshiradi.

Ekoturizm obyektlarida xizmat ko'rsatish sektorining rivojlanishi ular joylashgan qishloq hududlarida tadbirkorlik subyektlarini soni va ko'lamini kengayishi orqali ayollar va yoshlar bandligi hamda daromadlarini oshishiga, qishloq hududlarida kambag'allikni qisqartirishga va farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

Biz tadqiqotlarimiz davomida 6 (Zarafshon milliy bog'i, Ertaklar olami, Teshiktosh, Ming archa, Oqbo'yro, Hazrati Dovud) ta ekoturizm obyekti joylashgan hududda aholi o'rtasida 167 ta so'rovnomalarni amalga oshirdik.

3-jadval

Respondentlarning ijtimoiy-demografik ma'lumotlari

No	Ijtimoiy-demografik xususiyatlari	Kategoriyalar	Respondentlar	%
1	Jinsi	Erkak	85	50,9
		Ayol	82	49,10
2	Yoshi	Yosh (15-39)	73	43,71
		O'rta yosh (40-59)	66	39,52
		Keksa yosh (60 va undan yuqori)	28	16,77
3	Ma'lumoti	Maktab darajasida	44	26,35
		Kollej (texnikum) darajasida	108	64,67
		Universitet darajasida	15	8,98
4	Kasb-hunari	Qishloq xo'jaligi	136	81,44
		Biznes	16	9,58
		Boshqalar (davlat ishlari, pensiya, pul o'tkazmasi)	15	8,98
5	Oila daromadi (oylik)	Kam (2 mlndan kam)	139	83,23
		O'rtacha (2 dan 5 mln gacha)	22	13,17
		Yuqori (5 mln dan yuqori)	6	3,59

So'ralgan 167 ta uy xo'jaligi respondentlaridan 85 nafari erkak (50,90%) va 82 nafari ayol (49,10%). Respondentlarning aksariyati 25 yosh va undan katta (1-jadval). Respondentning o'rtacha yoshi 25 yoshni tashkil etdi. So'ralgan respondentlarning ko'pchiligi 15-39 yosh (43,71%), keyin 40-59 yosh (39,52%) va 60 yoshdan katta (16,77%). Respondentlarning 26 foizi maktabda tahsil olsa, 73,66 foizi kollej, texnikumni tamomlagan

yoki undan yuqori akademik malakaga ega. Asosiy tirikchilik manbai qishloq xo'jaligi ekanligi aniqlandi.

So'rovnoma ko'ra ekoturizm o'z turmush tarzini o'zgartirdi deb o'ylagan respondentlar “Ha”, aks holda, “Yo'q” deb javob berishdi. Respondentlardan ekoturizmga qiziqish darajasi va ularning javoblari haqida so'ralgan va biz ularning javoblarini “yuqori”, “o'rta” va “past” deb tasnifladik. Ushbu ikkita “Ha” va “Yo'q” va “yuqori”, “o'rta” va “past” uchta javob Xi-kvadrat testida ishlatilgan.

4-jadval

O'zgaruvchilar va respondentlarning ekoturizmga bo'lgan qiziqishlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

No	Ijtimoiy-demografik xususiyatlari	Kategoriyalar	Qiziqadi	Qiziqmaydi	Xi-kvadrat testi (p-qiyamati)
1	Jinsi	Erkak	64	21	0,094
		Ayol	54	28	
2	Yoshi	<25	11	3	0,498
		>25	107	46	
3	Ma'lumoti	Maktab darajasida	24	20	0,016
		kollej (texnikum) va universitet darajasida	94	29	
4	Kasb-hunari	Qishloq xo'jaligi	94	42	0,000
		Biznes	15	1	
		Boshqalar (davlat ishlari, pensiya, pul o'tkazmasi)	9	6	
5	Daromad	Yuqori	30	8	0,0127
		Past	83	41	

Natijalar shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 70% dan ortig'i o'z hududida ekoturizmga yuqori yoki o'rtacha qiziqish bildirgan. Ko'proq qiziqishning sabablaridan biri mahalliy aholining ekoturizmdan foyda ko'rganligidir. Turli xil ijtimoiy-demografik xususiyatlar va respondentlarning ekoturizmga bo'lgan qiziqishlari o'rtasidagi bog'liqlikni tekshirish uchun Xi-kvadrat testi o'tkazildi. Beshta o'zgaruvchi orasida ma'lumot darajasi ($p = 0,016$) va kasb-hunari ($p < 0,001$) mahalliy aholining ekoturizmga qiziqishi uchun statistik ahamiyatga ega bo'lib, 95% ahamiyatlilik darajasida.

5-jadval

Hududlarda infratuzilmani rivojlantirishga ekoturizmning ta'siri

No	Ijtimoiy-demografik xususiyatlari	Kategoriyalar	Yaxshilandi	O'zgarish yo'q	Xi-kvadrat testi (p-qiyamati)
1	Jinsi	Erkak	81	4	0,131
		Ayol	73	9	
2	Yoshi	<25	11	3	0,046
		>25	143	10	
3	Ma'lumoti	Maktab darajasida	41	3	0.0380

No	Ijtimoiy-demografik xususiyatlari	Kategoriya	Yaxshilandi	O'zgarish yo'q	χ^2 -kvadrat testi (p-qiyamati)
		kollej (texnikum) va universitet darajasida	113	10	
4	Kasb-hunari	Qishloq xo'jaligi	125	11	0.410
		Biznes	14	2	
		Boshqalar (davlat ishlari, pensiya, pul o'tkazmasi)	15	0	
5	Daromad	Yuqori	35	10	0.977
		Past	119	3	

Respondentlarning ko'pchiligi (92%) o'z hududida infratuzilmaning rivojlanishi ekoturizmning bevosita ta'siri deb hisoblaydi. χ^2 -kvadrat testi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-demografik omillar orasida faqat yosh va ma'lumot muhim bo'lib, respondentlarning ekoturizm haqidagi fikrlari infratuzilma rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Xulosa va takliflar

Ekoturizmni rivojlantirishda xalqaro ilg'or tajribalardan foydalanish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ekoturizmni samarali tashkil qilish mexanizmlarini takomillashtirish, ekoturizm tarmog'iga klasterlarni joriy qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, hamda tarmoqda investitsion loyihalarni samaradorligini hisoblash uchun takomillashtirilgan va mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan baholash usullari, hisoblash formulalari va amaliy kompyuter dasturlari va mobil ilovalarini ishlab chiqishga katta ehtiyojning mavjudligi aniqlandi. Bu orqali ilmiy izlanishlarimizni shu faoliyatga qaratishimiz lozimligi kelib chiqmoqda.

Bizning natijalarimiz shuni ko'rsatdiki, ekoturizmni rivojlanishi ekologik maskanlar joylashgan qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatish sektorining rivojlanishi tadbirkorlik subyektlarini soni va ko'lamini kengayishiga, bu orqali ayollar va yoshlar bandligi hamda daromadlarini oshishiga sabab bo'ladi. Yangidan barpo etiladigan umumiy ovqatlanish obyektlari, kungilochar maskanlar aholi punktlarini ko'rkamligini oshirish bilan birga, mahalliy aholi uchun ham ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytirib, bularning barchasi birgalikda qishloq hududlarida kambag'allikni kamaytirishga va farovonlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekologik maskanlardan haddan ortiq foydalanish ularning yemirilishiga olib kelib, ushbu maskanlarga kelayotgan turistlar oqimini maqbullashtirishning iqtisodiy-tashkiliy asoslarini ishlab chiqish talab etadi. Undan tashqari, insonlar foydalanishida bo'lgan ekologik maskanlar tabiiy tiklanish salohiyatiga qo'shimcha ravishda undan keladigan daromad hisobiga doimiy ravishda tozalash va tiklash tadbirlarini olib borishni talab qiladi. O'rganishlar jarayonida shunday xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

-chekka qishloq hududlarida mavjud ekoturistik manzillarni aniqlash va uni ro'yxatga olishni tashkil etish;

-aniqlangan ekoturizm maskanlarini iqtisodiy baholash lozim. Nafaqat yangilarini balkim eski ekoturistik maskanlarning bahosini shakillantirish lozim;

-ekoturizm maskanlarida shtatdagi ish faoliyatlarini shakillantirish;

ekoturizm maskanlarida ish faoliyatini amalga oshiradigan aholining mavsumiy ishlash jarayonini doimiyga aylantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aholi_daromadlari.
2. T.Turgunov, I.Jalolov “Aholi turmush darajasi rivojlanishi statistic baholash: milliy va xalqaro tajriba” - “Jamiyat va boshqaruv” №4, 2018 y.
3. И.Н.Панов «Экологический туризм», География. Российский журнал Экотуризма. - 2010. №4.-С. 114
4. А.Д.Чудновский «Гостиничный и туристический бизнес», Учебник. М:Юркнига, 2005. -448 с
5. A.Nig‘matov, N.Shomurotova «Ekoturizm asoslari». T., 2013,- 289 b
6. Sims R (2009) Food, place and authenticity: local food and the sustainable tourism experience. Journal of Sustainable Tourism 17(3):321-336. doi: 10.1080/09669580802359293
7. O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi - **stat.uz**.
8. Susan Snyman “The impact of ecotourism employment on rural household incomes and social welfare in six southern African countries” January 2014 [Tourism and Hospitality Research](#) 14(1-2):37-52